

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

70811001 – O'simliklar karantini va himoyasi (kimyoviy himoya qilish)
magistratura mutaxassisligining malaka talablari

Toshkent -2023

ЎЗР ОУМТВ

Буйруқ № 367

" 21 " 08 2023 йил

ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:

- Toshkent davlat agrar universiteti.

• TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023 yil «21» avgust dagi 367 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	70811001 – O‘simliklar karantini va himoyasi (kimyoviy himoya qilish) magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi	4
1.1	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1	<i>70811001 – O‘simliklar karantini va himoyasi (kimyoviy himoya qilish) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanilishi</i>	4
1.1.2	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	<i>70811001 – O‘simliklar karantini va himoyasi (kimyoviy himoya qilish) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlari tasnifi.....</i>	4
1.2.1	<i>70811001 – O‘simliklar karantini va himoyasi (kimyoviy himoya qilish) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....</i>	4
1.2.2.	<i>70811001 – O‘simliklar karantini va himoyasi (kimyoviy himoya qilish) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlari obyektlari.....</i>	5
1.2.3.	<i>70811001 – O‘simliklar karantini va himoyasi (kimyoviy himoya qilish) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....</i>	6
1.2.4	<i>70811001 – O‘simliklar himoyasi (kimyoviy himoya qilish) mutaxassisligi bo‘yicha magistrarning kasbiy vazifalari.....</i>	6
2	70811001 – O‘simliklar karantini va himoyasi (kimyoviy himoya qilish) mutaxassisligi bo‘yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar	8
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	8
2.2	Kasbiy kompetensiyalar.....	8
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	10
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	11
2.3.2.	<i>70811001 – O‘simliklar karantini va himoyasi (kimyoviy himoya qilish) magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablar.....</i>	12
2.3.3.	<i>70811001–O‘simliklar karantini va himoyasi (kimyoviy himoya qilish) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha ta‘lim dasturining tuzilishi.....</i>	12
	Bibliografik ma‘lumotlar.....	14
	Kelishuv varag‘i.....	15

1. 70811001 – O‘simliklar karantini va himoyasi (kimyoviy himoya qilish) magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi

70811001 – O‘simliklar karantini va himoyasi (kimyoviy himoya qilish) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta‘lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta‘lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me‘yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. 70811001 – O‘simliklar karantini va himoyasi (kimyoviy himoya qilish) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi **70811001 – O‘simliklar karantini va himoyasi (kimyoviy himoya qilish)** magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

-mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor – o‘qituvchilari

-magistratura mutaxassisligining o‘quv reja va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim tashkilotining talabalari;

-magistratura bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

-ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

-oliy ta‘lim muassasasini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

-oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

-kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

-oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70811001 – O‘simliklar karantini va himoyasi (kimyoviy himoya qilish) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 70811001 – O‘simliklar karantini va himoyasi (kimyoviy himoya qilish) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:

70811001 – O‘simliklar karantini va himoyasi (kimyoviy himoya qilish) magistratura mutaxassisligi - Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, umumiy

o'рта, o'рта maxsus va professional ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, davlat boshqaruvi organlari, Qishloq xo'jaligi vazirligi tizim tashkilotlarida, ilmiy - ishlab chiqarish birlashmalarida biotexnologik ishlab chiqarish korxonalarida, qishloq xo'jalik ekinlarining genetik muhandisligi, hujayra va to'qimalar kulturasida, o'simliklarni klonli mikroko'paytirish, in-vitro sharoitida qishloq xo'jalik ekinlarini ko'chatlarini yetishtirish, qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan biologik faol moddalar, biopreparatlar, mikrobiologik biotexnologiya, ekologik biotexnologiya, fermentlar muhandisligiga oid bo'lgan kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

Mutaxassislik bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda magistrning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

1.2.2. 70811001 – O'simliklar karantini va himoyasi (kimyoviy himoya qilish) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatining obyektlari:

– oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

– fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlari hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

– ilmiy, texnikaviy va texnologik masalalar bilan bog'liq akademik, ilmiy tadqiqot va muassasa tashkilotlari;

– davlat va mahalliy boshqaruv organlari, uning turli hududiy bo'linmalarida boshqaruv jarayonlari;

– ilmiy, texnikaviy va texnologik masalalar bilan bog'liq akademik, ilmiy tadqiqot va muassasa tashkilotlari;

– qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim tizimi muassasalari;

– davlat boshqaruvi va uning turli hududiy bo'linmalari;

– qishloq xo'jaligi vazirligi, "O'simliklar karantini va himoyasi agentligi" va ularning hududiy boshqarma va bo'limlari;

– O'zbekiston fermer, dehqon va tomorqa yer egalari kengashi, uning hududiy bo'limlari;

– universitet va uning filiallari axborot - maslahat markazlari (extension center) orqali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi tizimli muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha "axborot - maslahat markazi kafedra - qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchisi" tizimini ishtirok etishi;

- tashkiliy-boshqaruv obyektlari;
- me'yoriy - huquqiy hujjatlar.

1.2.3. 70811001 – O‘simliklar karantini va himoyasi (kimyoviy himoya qilish) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- pedagogik faoliyat;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyati.

1.2.4. 70811001 – O‘simliklar karantini va himoyasi (kimyoviy himoya qilish) mutaxassisligi bo‘yichamagistrnlarning kasbiy vazifalari:

70811001 – O‘simliklar karantini va himoyasi (kimyoviy himoya qilish) mutaxassisligi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining soxalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vaziflarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

– ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o‘tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

– ilmiy maqolalar, ma‘ruzalar, risola, o‘quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o‘tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo‘yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

– ilmiy adabiyotlar va internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma‘lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topishi;

– ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish hamda faol ishtirok etish;

– mos mutaxassislik mavzusi bo‘yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

– oliy ta‘lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta‘lim muassasalarida mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik va o‘quv - uslubiy faoliyat yuritish;

– o‘quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o‘qitishning texnik vositalaridan foydalanib o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

– elektron (e-learning), mobil (m- learning), masofaviy axborot texnologiya va o‘quv metodik majmualarni mukammal o‘zlashtirish;

– o‘simliklar karantini va himoyasida masofaviy diagnostika va laboratoriyasini faoliyati;

– ekinlarning zararli organizmlari himoya qilish tizimini tashkillashtirish;

– o‘simliklarni himoya qilish vositalaridan samarali foydalanish;

– pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini takomillashtirishi;
- ishlab chiqarish jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirishi;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqishi;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish qobiliyatlariga ega bo‘lishi;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilishi;
- bajarilayotgan ish rejasini tuzish va bu ishni nazorat qilish, ishni bajarish uchun zarur bo‘lgan resurslarni rejalashtirish, o‘z ishining natijalarini baholash;
- kasbiy etika qoidalariga rioya qilishi.

Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatida.

- kimyoviy kurash vositalaridan qo‘llashda shaxsiy va jamoa xavfsizligini ta‘minlash;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- o‘simliklarni maxalliy va karantin organizmlardan himoya qilish sohasida bajariladigan ish rejasini tuzish va bu ishni nazorat qilish, ishni bajarish uchun zarur bo‘lgan resurslarni rejalashtirish, o‘z ishining natijalarini baholash;
- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof - muxit muhofazasi, yong‘in, texnika va mehnat xavfsizligini talablariga mosligini monitoring qilish;
- xizmat ko‘rsatish sohasida me‘yoriy - huquqiy hujjatlardan foydalana olish;
- o‘simliklarni kimyoviy himoya qilish sohasi bo‘yicha servis xizmati ko‘rsata olishi;
- dehqon, fermer va mutaxassislariga zamonaviy biotexnologiya usullarini qo‘llash bo‘yicha maslahat berishi;
- biologik faol moddalarni qo‘llash, zararli organizmlariga qarshi kimyoviy kurash hamda qishloq xo‘jalik ekinlarini himoya qilish usullari bo‘yicha dehqon, fermer xo‘jaliklari va shaxsiy tomorqa egalariga maslahat berishi;
- ilg‘or tajribalar va fan yutuqlari to‘g‘risida ma‘lumotlar izlash va ularni umumlashtirish hamda ommalashtirish qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.

2. 70811001 –O‘simliklar karantini va himoyasi (kimyoviy himoya qilish) mutaxassisligi bo‘yicha magistrning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- tanlangan mutaxassislik bo‘yicha ilmiy - tadqiqotlarni bajarishga, shuningdek fan, texnika va texnologiya, iqtisodiyot, madaniyat va san‘atning

zamonaviy yutuqlarini amaliyotga joriy etishga yo'naltirilgan kasb tayyorgarligiga ega bo'lishi;

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyassini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

- o'z faoliyatida me'yoriy - huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilishi;

- ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- 60811000 - O‘simliklar karantini va himoyasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bakalavrlari bilishi shart bo‘lgan kompetensiyalarni ushbu mutaxassislik magistrarlari yanada yuqori darajada bilishi va bajara olishi;
- ilmiy-tadqiqot muassasalarida ishlash;
- o‘simliklar karantini va himoyasi (kimyoviy himoya qilish) sohasidagi kasbiy bilimlarni ilmiy asosda qo‘llash;
- o‘simliklar karantini va himoyasi (kimyoviy himoya qilish) sohasidagi ko‘nikmalarni turli maxsus amaliy dasturiy vositalardan foydalanib amalda qo‘llash;
- o‘simliklar karantini va himoyasi (kimyoviy himoya qilish) sohasi bo‘yicha innovatsion g‘oyalardan foydalangan holda eng samarali texnologiyalarni ilmiy asosda joriy etish;
- o‘simliklar karantini va himoyasi (kimyoviy himoya qilish) sohasidagi faoliyati natijalarini to‘g‘ri baholay olish;
- o‘simliklarni kimyoviy himoyasining nazariy asoslarini va ulublarini bilish;
- ichki va tashqi karantin organizmlarini tur tarkibini aniqlay olishi;
- fumigantlar va ularni qo‘llash tartiblarini bilish;
- zamonaviy insektitsid, mikrobiologik kurash vositalari va ulardan foydalanish tartiblarini bilishi;
- o‘simliklarni va ularning mahsulotlarini zararlovchi maxalliy va karantin zararkunandalar tur tarkibini aniqlash, bioekologik xususiyatlarni va ularga qarshi kurash choralarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tqazish;
- zararkunandalarga qarshi kimyoviy kurash vositalarini qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tqazish;
- o‘simliklar karantini va himoyasi jarayonlarida texnologiyalarni tashkillashtirish, pestitsidlar qo‘llanilishini tashkil etish;
- o‘simliklar karantini va himoyasi jarayonlarini amalga oshirishda kimyoviy va biologik laboratoriyalarini tashkil qilish, himoya qilish vositalarini qo‘llash texnologiyalarini yaratish, pestitsid qoldig‘ini aniqlash;
- foydali va zararli hasharotlar turlarini sistematik belgilariga va zarariga qarab aniqlay olish, ularni ko‘payish hamda tarqalishini bashorat qilish ishlarini tashkil etish va boshqara olishi;
- o‘simliklar karantini va himoyasi otryadlarini, tajriba stansiyalarini, tuman va viloyat o‘simliklar karantini himoyasi bo‘limlarini, ilmiy - tadqiqot institutlarida laboratoriyalaridagi ishlarni tashkillashtirish va boshqara olishi;
- o‘simliklarni himoya qilish va karantini sohasida ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish, rejalashtirish hamda tatbiq qilish;
- mehnat jamoasiga rahbarlik qilish;
- ishlab chiqarish faoliyatida boshqarish sifatini nazorat qilish va tadbiq etish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini va zahiralarni rejalashtirish va ularni ishlab chiqarishga tatbiq etish;

– zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

– natijalarni ilmiy asoslay bilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

– o‘quv uslubiy ko‘rsatmalar, ma‘ruza matnlari, amaliyot va laboratoriya mashg‘ulotlaridan qo‘lanmalar, tarqatma materiallar, o‘quv fanlari ishchi dasturlarini, kalendar reja, talabalar bilimini reteng nazorati jadvalini tuzish va boshqa o‘quv uslubiy hujjatlarni tayyorlashni bilishi;

– o‘z mutaxassislik faoliyati va boshqa turdosh kasblarga samarali moslasha olishi;

– ishlab chiqarish faoliyati natijalari bo‘yicha ma‘lumotlarni qayta ishlash usullaridan foydalanish va monitoringini olib borish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

– fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarish jarayoniga tadbiiq etishni qo‘llay olishi;

– iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni baholash, tarmoqlar va sohalar bo‘yicha ishlab chiqarish hisobotlarini tuzish hamda ularni sharhlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

– amaliy faoliyatda instrumental vositalarni va ishlab chiqarish muhitini takomillashtirish malakasiga ega bo‘lishi lozim.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketma - ketligda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar - bakalvriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta‘minlaydigagn fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari - ta‘lim yo‘nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

Ilmiy amaliyot - majburiy va tanlov fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi:

Pedagogik amaliyot-pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: agronom, karantin inspektori, tadqiqotchi pedagog.

2.3.2. 70811001 –O‘simliklar karantini va himoyasi (kimyoviy himoya qilish) magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar:

O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta‘lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1380	46
Tanlov fanlar	420	14
Ilmiy faoliyat	1800	60

2.3.3. 70811001 –O‘simliklar karantini va himoyasi (kimyoviy himoya qilish) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha ta‘lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semest r
1.00	MFM2446	Majburiy fanlar	1380	46	
1.01	ITMM1304	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO‘MM 1404	Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi	120	4	2
1.03	O‘HQITUM 1404	O‘simliklar karantini va himoyasida ilmiy-tadqiqot uslublari	120	4	1
1.04	QXEZOBSM 1406	Qishloq xo‘jalik ekinlari zararli organizmlarini bioekologiyasi va sistematikasi	180	6	1
1.05	O‘BHQNM 1406	O‘simliklarni biologik himoya qilish nazariyasi	180	6	2
1.06	O‘KHQNM 2404	O‘simliklarni kimyoviy himoya qilish nazariyasi	120	4	3
1.07	O‘UHQM 2406	O‘simliklarni uyg‘unlashgan himoya qilish	180	6	3
1.08	O‘KUASM 2406	O‘simliklar karantini umumiy asoslari	180	6	3
1.09	ISEHQEXU	Issiqxona ekinlarini himoya	180	6	1

	M1406	qilishning ekologik xavfsiz usullari			
2.00	TFM2414	Tanlov fanlari	420	14	2-3
		Tanlov fanlar (6 ta fan)			
		Jami	1800	60	
3.00	IFM2460	Ilmiy faoliyat	1800	60	
		Jami	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UO'K: 632

Guruh T 55

OKS 01.040.01


Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi zararkunanda, o'simliklarni himoya qilish, kasb faoliyati, magistratura, loyiha-texnologik, pedagogik, ilmiy-pedagogik ish, pedagogik texnologiyalar, pedagogik mahorat, nutq madaniyati asoslari, malaka amaliyoti, magistrlik dissertatsiyasi, baholash, davlat attestatsiyasi, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, mundarija, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, kadrlarga talab, loyihalash, ilmiy - tadqiqot jarayonlari, ichki va tashqi karantin, fumigatsiya, karantin zararkunandalar, o'simliklar, karantini himoyasi, kimyoviy usul.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti

Birinchi prorektor  S.Y. Islamov

2023 yil « 10 » 07



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi


Direktor  SH.Yakubov

2023 yil « 21 » 08
M.O'.

O'simliklar karantini va himoyasi agentligi
direktor o'rinbosari v.b.

 B. Xamrayev

2023 yil « 17 » 07
M.O'.




O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy
tadqiqot instituti

Direktor  A. Anorbayev

2023 yil « 18 » 07
M.O'.

Andijon qishloq xo'jaligi va
agrotexnologiyalar instituti

Rektor  K. Komilov


2023 yil « 19 » 07
M.O'.



“DOGALAGROCHEMICALS” MCHJ

Direktor  Baktyiar Medetbek uulu

2023 yil « 20 » 07
M.O'.



Toshkent davlat agrar universiteti 70811001 –O‘simliklar karantini va himoyasi (kimyoviy himoya qilish) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta‘lim muassasalari va asosiy kadrlar iste‘molchilari o‘rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ 10 ” 07 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar - Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori professor S.Ya.Islamov, O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy tadqiqot instituti direktori professor A.Anorbayev hamda Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti rektori professor K.Komilov birgalikda TDAUda ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o‘quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70811001 –O‘simliklar karantini va himoyasi (kimyoviy himoya qilish) magistratura mutaxassisligining Malaka talablari hamda o‘quv rejasini ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi “Davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-279-son Qarorlariga hamda O‘zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi “Oliy ta‘limning me‘yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida” gi 259-sonli buyrug‘i, oliy ta‘lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste‘molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Toshkent davlat agrar universiteti
birinchi prorektori, professor**

S.Ya.Islamov

**O‘simliklar karantini va himoyasi
ilmiy tadqiqot instituti direktori,
professor**

A.Anorbayev

**Andijon qishloq xo‘jaligi va
agrotexnologiyalar instituti rektori
professor**

K.Komilov